

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№4

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026 APREL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari
08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, aprel.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afrovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

STRATEGIC INTEGRATION OF BUSINESS PLANNING AND FORECASTING IN INDUSTRIAL ENTERPRISES.....	11
Sharipov K.A., Ismatullayev T.R.	
ВКЛАД БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ В СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ МАХАЛЛЕЙ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН: МЕХАНИЗМЫ, ДИНАМИКА И СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ	21
Бабаназарова Гульзар Зиуатдиновна	
BUDJET TASHKILOTLARIDA XARAJATLARNI REJALASHTIRISH VA MOLIVAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISH.....	27
Karayev Payzillaxon Yusufxonovich	
FERMER XO'JALIKLARINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA SUBSIDIYA AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH.....	32
Xakimov Zafar Ibragimovich	
IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA DAVLAT INNOVATSION VA INVESTITSION SIYOSATINING O'RNI	38
Xaydarova Yorqinoy Asqar qizi	
QURILISH SANOATIDA KORXONALARNI MOLIVALASHTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYALARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLARI.....	44
Igitov Jurabek Kuzibekovich	
ОСОБЕННОСТИ ВЫБОРА СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ МЕТАЛЛУРГИЧЕСКОГО КОМПЛЕКСА	50
Абдуллаева Матлуба Нематовна, Акбарова Муфаррах Мухитдиновна	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ КОМПАЕНС-КОНТРОЛЯ В КОМПАНИЯХ С ГОСУДАРСТВЕННЫМ УЧАСТИЕМ В УЗБЕКИСТАНЕ	56
Халтурдиев Айтмурат Маратович	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING ICHKI BELGILARI	64
Saatova Lolaxon Ergashevna	
INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA OZIQ-OVQAT KORXONALARIDA RAQOVBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH MEKANIZMLARI	71
Pulatov Abdullo	
MAJBURIY IJRO ETISH CHORALARINI TAKOMILLASHTIRISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA.....	76
Axmedov Zafarjon Zokirjon	
МОДЕЛЬ ИНТЕГРИРОВАННОЙ СИСТЕМЫ ESG-ТРАНСФОРМАЦИИ И ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ЕЁ РЕАЛИЗАЦИИ НА ПРЕДПРИЯТИИ ПО ПРОИЗВОДСТВУ ПОЛИМЕРНОЙ УПАКОВКИ	80
Ташпулатов Дильмурад Рустамович	
KORPORATIV KORXONALARDA KAPITALNI BUDJETLASHTIRISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	85
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	
INNOVATSION MENEJMENTDA KOMMUNIKATSIYA VA TASHKILY MOSLASHUVCHANLIKNING ROLI: O'ZBEKISTON SHAROITI MISOLIDA	92
Atamatov Abdusalil Salomovich	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING AHAMIYATI VA UNING SALOHİYATINI BELGILOVCHI OMILLAR	97
Qodirov Baxodir Tursunovich, To'rayev Qaxramon Zokirjonovich	



NAMANGAN VILOYATIDA AYOLLAR TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK MUHITINI BAHOLASH	103
Raximova Moxigul Isroiljonovna	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI	107
Davitova Shaxzoda Doniyor qizi	
ANALYSIS OF THE FORMATION OF MARKET DEMAND AND THE ESTABLISHMENT OF EQUILIBRIUM IN A MARKET ECONOMY	112
Kamilova Nargiza	
BO'LAJAK FIZIKA O'QITUVCHILARINI NANOTEXNOLOGIYA SOHASIDAGI BILIMLARNI TAQDIM ETISHGA VA O'QITISHGA TAYYORLASH METODIKASI	115
Sottarov Abdulvali Umirqulovich	
INTEGRATING AI INTO STRATEGIC MANAGEMENT IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS	120
Uktamova Durdona Bakhtiyor qizi, Sultonali Umaraliyevich Mekhmonov	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA IJTIMOYIY HISOBOTLAR VA ULARNING AHAMIYATI	130
Sayfullayev Mexroj Sayfullayevich	
SANOAT KLASTERINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY JIHATLARI.....	135
Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI LIKVIDLIGINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI	140
Yangiboev Rustam Berdiyrovich	
MINTAQA IQTISODIY O'SISH DRAYVERLARINI RIVOJLANTIRISHDA MOLIYAVIY XAVFLARNI BOSHQARISH MEKANIZMLARI.....	145
Turopova Nigora Xolmurod qizi	
ЭКОЛОГИЯ ТУРИСТА КАК МЕТОД СОЗДАНИЯ КОМФОРТНОЙ И УСТОЙЧИВОЙ СРЕДЫ ДЛЯ ПУТЕШЕСТВЕННИКОВ.....	149
Наурызбаев Алиакбар Рустамович	
BINO VA INSHOOTLARNI BARPO ETISHDA PREFABRIKATSIYALASHGAN HAMDA MODULLI QURILISH TIZIMLARINI AQLLI BOSHQARUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	152
Solijonov Javoxirmirzo Obidjon o'g'li	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA AKSIYADORLIK TIJORAT BANKLARIDA KORPORATIV BOSHQARUVNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	163
Saidaxmedova Aida Mirzayevna	
O'ZBEKISTONDA KO'CHAT YETISHTIRISHNING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	169
Abdufarmonov Farrux Faxriddinovich	
O'ZBEKISTONDA EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI SIFATI VA XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQLIGI TAHLILI	174
Safarova Muxabbat Radjabovna	
TIJORAT BANKLARI DEPOZIT SIYOSATI VA DEPOZIT BAZASI DINAMIKASINING BANK LIKVIDLIGIGA TA'SIRI	178
Sulaymanov Samandarboy Adhambek o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ISLOMIY MOLIYANING BANK TIZIMIGA INTEGRATSIYASI: MUAMMOLAR, IMKONIYATLAR VA TRANSFORMATSIYA YO'NALISHLARI	186
Adilov Zuxriddin Marip o'g'li	
SAMARQAND VILOYATI SANOATINING HUDUDIY TARKIBINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI.....	190
Uralov Eliboy Omonovich	



DIVERSIFIKATSIYALASHUV ASOSIDA QURILISH TARMOG'I RIVOJLANISHINI KO'P OMILLI BOG'LANISHLAR ASOSIDA MODELLASHTIRISH.....	194
Yembergenova Aynur Aydosbaevna	
ЩЕБЕНОЧНО-МАСТИЧНЫЙ АСФАЛЬТОБЕТОН В КИТАЕ: СОСТАВ, СВОЙСТВА, ИННОВАЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ.....	201
Карабаев Абдужаббор Мелиевич, Занг Хайфей	
TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA SUBYEKTIV RISKNI SHAKLLANTIRUVCHI KOGNITIV OMILLAR VA ULARNI BOSHQARISH MEKANIZMLARI	205
Abduxamid Abdumalikovich Bektemirov	
HOMILADOR AYOLLAR UCHUN MAXSUS KIIYIMLARNI LOYIHALASHDA ISTE'MOLCHILAR TALABLARINI O'RGANISH	211
D.Sattarova, U.Vakhidova, D.Madiyarovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI DAROMADLARIGA TA'SIR ETUVCHI STATISTIK INDIKATORLAR TIZIMINING METODOLOGIK ASOSLARI VA ULARNING TAHLILIIY IMKONIYATLARI	217
Atayev Jaxongir Erkinovich	
KICHIK BIZNES INVESTITSION KREDITLARINI TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MOLIYALASHTIRISH.....	221
M.O.Yuldoshova	



KICHIK BIZNES INVESTITSION KREDITLARINI TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MOLIYALASHTIRISH

M.O.Yuldoshova

Fan va texnologiyalar universiteti
“Moliya va moliyaviy texnologiyalar”
kafedrası phd dotsent v.b

Annotatsiya. mazkur maqolada O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qilayotgan kichik biznes subyektlarini tijorat banklari tomonidan investitsion kreditlar orqali moliyalashtirishning amaldagi holati, mavjud muammolari va takomillashtirish istiqbollari chuqur o'rganiladi. Tadqiqot jarayonida kichik biznesning iqtisodiy salohiyati, ularning tarmoqlar bo'yicha tarkibiy ulushi, investitsion loyihalarni moliyalashtirishda qo'llanilayotgan bank metodologiyasi hamda tijorat banklarining kredit siyosati atroflicha tahlil qilinadi. Shuningdek, Mikrocreditbank, Agrobank, Xalq banki va Ipak Yo'li bankining kichik biznesni investitsion kreditlar orqali qo'llab-quvvatlash borasidagi tajribasi solishtirma tahlil asosida yoritilib, kreditlash mexanizmidagi mavjud kamchiliklar aniqlanadi. Tadqiqot ilmiy, statistik va amaliy manbalarga tayangan holda olib borilgan bo'lib, investitsion kreditlar samaradorligini oshirish, tijorat banklarining kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlashdagi rolini kuchaytirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: kichik biznesni rivojlantirish, tijorat banklarining investitsion kreditlari, moliyalashtirish metodologiyasi, kredit siyosati, kredit kafilliklari, bank tizimining iqtisodiy salohiyati, mikrocredit mexanizmlari, moliyaviy qo'llab-quvvatlash instrumentlari, kredit resurslaridan samarali foydalanish, foiz stavkalari dinamikasi, innovatsion moliyalashtirish yondashuvlari.

Abstract. this article provides an in-depth analysis of the current state, existing problems, and prospects for improving the financing of small business entities one of the key drivers of Uzbekistan's economic development through investment loans issued by commercial banks. The study examines the economic potential of small businesses, their sectoral distribution, the banking methodologies used in financing investment projects, and the credit policies adopted by commercial banks. Furthermore, the experience of Mikrocreditbank, Agrobank, Xalq Bank and Ipak Yo'li Bank in supporting small businesses through investment lending is analyzed comparatively, identifying existing shortcomings in lending mechanisms. The research is based on scientific, statistical, and practical sources and offers recommendations aimed at increasing the effectiveness of investment loans and strengthening the role of commercial banks in financially supporting small business entities.

Keywords: small business development, investment loans of commercial banks, financing methodology, credit policy, loan guarantees, economic potential of the banking system, microcredit mechanisms, financial support instruments, efficient use of credit resources, interest rate dynamics, innovative financing approaches.

Аннотация. В данной статье всесторонне анализируется текущее состояние, существующие проблемы и перспективы совершенствования финансирования субъектов малого бизнеса - одной из ключевых движущих сил устойчивого развития экономики Узбекистана - посредством инвестиционных кредитов коммерческих банков. В ходе исследования изучаются экономический потенциал малого бизнеса, его отраслевое распределение, методология банковского финансирования инвестиционных проектов, а также кредитная политика коммерческих банков. Кроме того, на основе сравнительного анализа рассматривается опыт Микрокредитбанка, Агробанка, Народного банка и банка «Ипак Йули» в поддержке малого бизнеса через предоставление инвестиционных кредитов, выявляются недостатки в действующих механизмах кредитования. Исследование основано на научных, статистических и практических источниках и направлено на разработку рекомендаций по повышению эффективности инвестиционного кредитования, а также усилению роли коммерческих банков в финансовой поддержке субъектов малого бизнеса.

Ключевые слова: развитие малого бизнеса, инвестиционные кредиты коммерческих банков, методология финансирования, кредитная политика, кредитные гарантии, экономический потенциал банковской системы, механизмы микрокредитования, инструменты финансовой поддержки, эффективное использование кредитных ресурсов, динамика процентных ставок, инновационные подходы к финансированию.

KIRISH

O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes sanoat, savdo, qishloq xo'jaligi va xizmatlar kabi asosiy tarmoqlarni o'z ichiga olgan keng doiradagi subyektlardir. So'nggi ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilda kichik biznes mamlakat yalpi ichki mahsulotining 51,2 foizini tashkil etgan. 2025-yilning birinchi yarmida esa kichik biznes hissasi 49,6 foizga baholangan. Shu bilan birga, bandlikdagi ulushi ham sezilarli - 2025-yil ma'lumotlariga ko'ra, kichik biznes subyektlari tomonidan yaratilgan bandlik mamlakatdagi jami bandlikning taxminan 75–76 foizni tashkil qiladi.

Nazariy adabiyotlarda, bank kreditlari kichik biznesni moliyalashtirishda yetakchi instrument sifatida ko'riladi. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, banklar kichik va o'rta korxonalariga kredit ajratishda odatda ehtiyotkorlik bilan yondashadi ma'lumot yetishmasligi, aktivlar va kapital hajmining pastligi, garov bazasining zaifligi kabi holatlar ularga kredit olish imkonini cheklaydi.

Shu sababli tadqiqotlar kredit kafillik jamg'armalari (Credit-Guarantee Schemes, CGS) kabi mexanizmlarni tavsiya qiladi ularning yordamida kreditorlar xavfi kamayadi va kichik biznes subyektlariga kredit olish imkoniyati kengayadi. O'zbekiston amaliyotida ham markaziy bank va boshqa moliyaviy institutlar kichik biznesni qo'llab-quvvatlash doirasida shunga o'xshash kafillik mexanizmlarini joriy etish choralari ko'rmoqda.

Shu o'rinda, investitsion kreditlash nazariyasi va amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki: banklar tomonidan taqdim etiladigan imtiyozli investitsion kreditlar bosqichma-bosqich bozor sharoitlariga moslashtirilishi lozim, foiz stavkalari bozor stavkalariga yaqinlashtirilishi, garov va kafillik talablarini yumshatish orqali kichik biznes subyektlari uchun kredit olish sharoitlari yaxshilanishi kerak.

Mazkur dissertatsiya aynan shunday yo'lni taklif qiladi: investitsion kreditlarni kengaytirish, kredit kafillik mexanizmini rivojlantirish, bank siyosatini kichik biznes ehtiyojlariga moslashtirish hamda moliyaviy shaffoflik va ma'lumot almashinuvini mustahkamlash orqali kichik biznes rivojiga xizmat qiluvchi barqaror kredit muhiti yaratish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklarining kichik biznesni investitsion kreditlar orqali moliyalashtirish mexanizmlarini o'rganish bo'yicha mavjud ilmiy va amaliy manbalar ushbu yo'nalishning nazariy asoslari, institutsional sharoitlari hamda amaliy tajribalarini keng qamrab oladi.

Demirg'uch-Kunt va hammualliflari (2023) esa rivojlanayotgan bozorlar banklarining moliyaviy barqarorligi va daromadlilikini o'rganib, kredit siyosati va investitsion faoliyatning bank barqarorligiga ta'sirini tahlil qiladi. Bu tadqiqot tijorat banklarining kichik biznesni investitsion kreditlashdagi faolligi bozor barqarorligiga qanchalik bog'liqligini yoritib beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020–2025-yillarga mo'ljallangan bank tizimini isloh qilish strategiyasi (2020) investitsion kreditlash jarayonlarini takomillashtirish, banklar faoliyatini liberallashtirish va kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirishga qaratilgan muhim hujjatdir. Markaziy bankning statistik byulletenlari (2024) esa investitsion kreditlar hajmi, foiz stavkalari dinamikasi va bank aktivlari tarkibi bo'yicha muhim amaliy ma'lumotlarni taqdim etadi.

IFC (2023) va YETTB (2024) hisobotlari O'zbekistonda kichik biznesning moliyaviy bo'shlig'i, kredit olishdagi to'siqlar va investitsion moliyalashtirish uchun zarur bo'lgan institutsional shart-sharoitlar haqida xalqaro standartlarga asoslangan tahlilni beradi. OTB (2023) esa KOB sektorini rivojlantirishda kredit infratuzilmasining modernizatsiyasi zarurligini ta'kidlaydi.

G'aniyev va Raxmatov (2022) tijorat banklari tomonidan qo'llanilayotgan kreditlash metodologiyasini o'rganib, kichik biznesning investitsion kreditlarga kirish imkoniyatini kengaytirish bo'yicha takliflar beradi. Karimov va Abdurahmonov (2023) bank aktivlari tuzilmasi va daromadlilik ko'rsatkichlarining o'zaro bog'liqligini tahlil qilib, investitsion kreditlar portfelining sifati banklar uchun strategik ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi. Abdullaeva (2021) esa bank ishi nazariyasini amaliy jarayonlar bilan uyg'unlashtirib, investitsion kreditlash mexanizmlarining ilmiy asoslarini yoritadi.

Mikrokreditbank (2023), Agrobank (2023), Xalq banki (2023) va Ipak Yo'li banki (2024) hisobotlari kichik biznesni investitsion kreditlar orqali moliyalashtirishda banklarning amaliy yondashuvlari, kredit portfeli tarkibi, kredit siyosati va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik jarayonlarini ochib beradi. Ushbu hisobotlar O'zbekistonda investitsion kreditlashning real amaliyoti, uning afzalliklari va mavjud muammolarini aniqlash imkonini yaratadi.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kichik biznesni tijorat banklari orqali investitsion kreditlar bilan moliyalashtirish samaradorligi uch asosiy omilga bog'liq:

1. banklarning risklarni boshqarish tizimi va kreditlash strategiyasi;
2. davlat tomonidan yaratilgan institutsional va huquqiy shart-sharoitlar;



3. banklar amaliyotida qo'llanilayotgan kredit mexanizmlarining zamonaviyligi va moslashuvchanligi.


Xalqaro tadqiqotlar nazariy asoslarni shakllantirsa, milliy hisobotlar va mahalliy ilmiy ishlar O'zbekistondagi investitsion kreditlash jarayonining amaliy holatini chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada muallif tomonidan ilmiy-amaliy takliflar, qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston statistikasiga ko'ra, 2025-yil boshida mamlakatda faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 358,1 mingtani tashkil etib, har 1000 aholiga 12,1 ta kichik biznes subyekti to'g'ri keladi. 2024-yilda 77,0 mingta yangi kichik korxonaning tashkil etilgani kichik biznes sektorida investitsion talabning yuqoriligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, 2021-yildagi eng yuqori ko'rsatkich (462,8 mingta korxonalar) bilan solishtirganda 2022–2024-yillarda faol subyektlar sonining qisqarishi investitsion moliyalashtirishdagi cheklovlar, kreditlashdagi qiyinchiliklar va biznesning barqarorligi bilan bog'liq omillar mavjudligini anglatadi. Kichik biznesning tarmoqlar bo'yicha tarkibi investitsion kreditlarga bo'lgan ehtiyojning turlicha ekanini ko'rsatadi. 2025-yil boshiga kelib kichik biznes korxonalarining eng katta qismi savdo sohasiga to'g'ri kelib, 136,352 mingta subyektni (38%) tashkil etdi. Sanoat tarmog'ida 54,692 mingta (15%) kichik korxonalar faoliyat yuritmoqda; ushbu tarmoq texnologik yangilash va asosiy kapitalga investitsiya talabining yuqoriligi sababli investitsion kreditlarning asosiy iste'molchisi hisoblanadi (1-rasm).



1-rasm. Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami mahsulot(ishlar,xizmatlar) importidagi ulushi

O'zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami mahsulot, ish va xizmatlar importidagi ulushi 2020–2024-yillar davomida sezilarli tebranishlarni boshdan kechirdi. 2020-yilda ushbu ko'rsatkich 51,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilda u keskin pasayib 45,2 foizga tushgan. Keyingi yillarda esa ko'rsatkich qayta tiklana boshladi: 2022-yilda 49,5 foiz, 2023-yilda 50,5 foizni tashkil etgan. 2024-yilda importdagi ulush biroz kamayib, 49,8 foizga teng bo'lgan. Umumiy hisobda 2020–2024-yillar oralig'ida kichik biznesning importdagi ulushi 1,9 foizga qisqargan.

Mazkur dinamikani tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, kichik biznesning import faoliyati bevosita tijorat banklari tomonidan taqdim etilayotgan investitsion kreditlar hajmi va mavjudligiga bog'liq. 2021-yildagi keskin pasayish pandemiyadan keyingi davrda banklarning kredit risklarini kamaytirish maqsadida investitsion kreditlarni qisqartirgani bilan izohlanadi. Bu esa kichik biznes korxonalarining chet eldan uskunalar, texnologiyalar va xomashyo xarid qilish imkoniyatlarini sezilarli darajada cheklagan.



2022–2023-yillarda ko'rsatkichning tiklanishi banklar tomonidan tiklanish kreditlari, ishlab chiqarish uskunalari modernizatsiya qilish uchun ajratilgan imtiyozli kredit liniyalari hamda xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik kengaygani natijasida yuzaga kelgan. Ushbu davrda investitsion kreditlar kichik biznesning import imkoniyatlarini kengaytirgan, natijada ulush 50 foizdan oshgan.

2024-yilda esa kichik pasayish qayd etildi. Bu foiz stavkalarining oshishi, garov talablarining qattiqlashuvi, banklarning kredit portfeli sifatini oshirish uchun riskli kreditlarga ehtiyotkorlik bilan yondashgani hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ayrim tovar va jihozlar bo'yicha importni qisman almashtirish jarayonlarining kuchayishi bilan bog'liq.

Umuman olganda, tahlil shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarining investitsion kreditlari kichik biznesning import faoliyati va texnologik yangilanishining asosiy omillaridan biridir. Kreditlash shartlari yumshatilishi, kafillik mexanizmlarining kengaytirilishi va imtiyozli investitsiya kreditlarining takomillashtirilishi kichik biznesning import hajmini barqarorlashtirish, ishlab chiqarish modernizatsiyasini qo'llab-quvvatlash va iqtisodiyotning umumiy raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda tijorat banklari tomonidan kichik biznesni investitsion kreditlar orqali moliyalashtirish bo'yicha mavjud amaliyot bank sektorining iqtisodiy faolligni qo'llab-quvvatlashdagi rolini yaqqol namoyon etadi. Banklar o'rtasida ayniqsa Mikrokreditbank, Agrobank, Xalq banki va Ipak Yo'li banklari kichik biznes investitsion loyihalariga yo'naltirilgan kreditlar hajmi va samaradorligi bo'yicha yetakchi subyekt sifatida ajralib turadi.

Mikrokreditbank 2023-yilda jami 5,1 trln so'm kredit ajratib, 184 427 nafar mijozni moliyalashtirgan. Ushbu resurslar hisobiga 100 mingga yaqin yangi ish o'rinlari yaratilgani bank investitsion kreditlarining bandlikka bevosita ta'sirini ko'rsatadi. Oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida esa 1,7 trln so'm kredit berilib, 91 903 ta ish o'рни yaratilgan. 2023-yilda bank orqali 10 942 ta yangi kichik korxonalar tashkil etilgani investitsion kreditlarning biznes-inkubatsiya jarayonida muhim rag'batlantiruvchi omil ekanini tasdiqlaydi. Qayta moliyalashtirish bo'yicha 4,4 trln so'm kreditning undirilishi esa bank portfelining intizomiy darajasi yuqoriligini ko'rsatadi.

Agrobankning 2023-yil yakuni bo'yicha kredit portfelida mikrokorxonalar ulushi 19%, kichik va o'rta biznes ulushi 31% ni tashkil qilgan. Bu bankning qishloq xo'jaligi, sanoat, qurilish va savdo tarmoqlarida investitsion kreditlar berish bo'yicha ixtisoslashganini ko'rsatadi. Agrobankning investitsion kreditlari ko'proq asosiy vositalar xaridi, qayta ishlash quvvatlarini yaratish va texnologik modernizatsiya jarayonlarini moliyalashtirishga yo'naltirilgan.

Ipak Yuli Banki xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda kichik biznesni qo'llab-quvvatlashni kengaytirgan. 2024-yilda YETTB tomonidan bankka 20 mln AQSh dollari miqdorida kredit liniyasi ajratilib, uning 10 mln dollari kichik biznesni, 10 mln dollari esa yosh tadbirkorlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan. Bankning "Advice for Small Businesses" dasturi esa kredit bilan birga biznes-reja, moliyaviy boshqaruv va bozor tahlili bo'yicha bepul konsalting xizmatlari ham ko'rsatishini anglatadi.

Kapitalbankning investitsion kreditlari bo'yicha shartlar kichik biznes uchun turlicha imkoniyat yaratadi: milliy valyutadagi kreditlar bo'yicha yillik foiz stavkasi 24% dan, xorijiy moliyalashtirish asosidagi kreditlarda esa 13% dan boshlanadi. Kredit muddati 120 oygacha, imtiyozli davr esa 3 oygacha, ayrim dasturlarda 6 oygacha belgilangan. Bunda foiz stavkasi Markaziy bankning asosiy stavkasiga +4 foiz punkt qo'shilishi orqali shakllantiriladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kichik biznesni investitsion kreditlar orqali moliyalashtirish jarayonida metodologik va amaliy cheklovlar mavjud. Eng katta muammo — garov va moliyaviy talablarning yuqoriligi, bu esa ayniqsa ishlab chiqarish quvvati kichik yoki kredit tarixiga ega bo'lmagan tadbirkorlar uchun qiyinchilik tug'diradi. Qonunchilikdagi yengilliklar (100 mln so'mgacha garovsiz kredit, 150 mln so'mgacha kreditlarda garov talabining 50% ga qisqartirilishi) muammoni qisman yumshatsa-da, investitsion loyihalar uchun hali ham yetarli darajada qulay sharoit yaratmayapti.

Shuningdek, investitsion kreditlarning yuqori foiz stavkasi, qisqa muddatli bo'lishi va qat'iy to'lov jadvallari kichik korxonalar uchun moliyaviy bosimni oshiradi. Kichik biznesning aksariyatida kafolat uchun qo'yiladigan mol-mulk kam, ko'plab subyektlarda kredit tarixi shakllanmagan, bu esa tijorat banklari uchun riskni kuchaytiradi.

Banklar tajribasi shuni ko'rsatadiki:

- Mikrokreditbank - mikro va oilaviy biznes kreditlari bo'yicha yetakchi;
- Agrobank - qishloq xo'jaligi va sanoat loyihalarini moliyalashtirishda asosiy bank;
- Xalq Banki - eksportchi kichik biznesni qo'llab-quvvatlovchi investitsion kreditlar taklif qiladi;
- Ipak Yuli Banki - xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda kichik biznesni imtiyozli kredit liniyalari orqali rag'batlantiradi.

Umuman olganda, tijorat banklarining kichik biznesni investitsion kreditlar orqali moliyalashtirishi iqtisodiyotning modernizatsiya jarayonini tezlashtirmoqda, ammo kredit siyosatini yanada moslashuvchan qilish, kafillik mexanizmlarini kengaytirish, foiz yukini kamaytirish va kredit tarixini shakllantirish tizimini takomillashtirish kichik biznes rivoji uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.



XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznesning tarmoqlar bo'yicha yuqori ulushi va iqtisodiy faollikdagi hal qiluvchi roli tijorat banklarining investitsion kreditlash faoliyatini strategik ahamiyatga ega yo'nalishga aylantiradi. Tahlil shuni ko'rsatdiki, so'nggi yillarda tijorat banklari kichik biznesni moliyalashtirishda sezilarli faollik namoyish etmoqda. Jumladan, Mikrokreditbank tomonidan 2023-yilda 5,1 trln. so'm kredit ajratilishi, 184 mingdan ortiq mijozning moliyalashtirilishi va 10 942 ta yangi kichik korxonalar tashkil topishi bank investitsion kreditlarining iqtisodiy o'sish va bandlikka ta'sirini yaqqol namoyon etadi. Agrobank kredit portfelida kichik va o'rta biznes ulushining 31foizga teng bo'lishi, Ipak Yuli Bankining YETTB va IFC bilan hamkorlikda kichik biznes uchun 20 mln. AQSh dollari miqdorida imtiyozli kredit liniyalarini jalb etishi ushbu jarayonning amaliy jihatdan kengayib borayotganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, mavjud tahlillar kichik biznesni investitsion moliyalashtirish metodologiyasida sezilarli cheklovlar mavjudligini ham tasdiqlaydi. Banklarning yuqori garov talabi, foiz stavkalarining qimmatligi, kredit tarixining yo'qligi, moliyaviy hisobotlarning to'liq shakllanmaganligi va kredit shartlarining qattiqligi ko'plab kichik tadbirkorlarni bank kreditlaridan chetda qoldirmoqda. Ayni paytda davlat tomonidan ayrim yengilliklar masalan, 100 mln. so'mgacha garovsiz kredit, 150 mln so'mgacha kreditlarda garovning 50% gacha kamaytirilishi joriy etilgan bo'lsada, investitsion loyihalar uchun bu talablar ham ko'p hollarda yetarli emas.

Import tarkibidagi tebranishlar ham investitsion kreditlash bilan bevosita bog'liq. 2020–2024-yillar oralig'ida kichik biznesning importdagi ulushi 51,7 foizdan 49,8 foizga pasaygan bo'lib, kreditlashdagi cheklovlar va iqtisodiy sharoitlar ushbu dinamikaga ta'sir ko'rsatgan. Ayniqsa 2021-yildagi keskin pasayish banklarning pandemiyadan keyingi ehtiyotkor kredit siyosati bilan bog'liq bo'lgan. Bu holat investitsion kreditlarning kichik biznes modernizatsiyasi va import imkoniyatlarini kengaytirishda hal qiluvchi omil ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Yuqoridagi barcha tahlillar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, tijorat banklari tomonidan kichik biznesni investitsion kreditlar orqali moliyalashtirish tizimini takomillashtirish O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashda muhim omildir. Bu borada quyidagi yo'nalishlar ustuvor ahamiyat kasb etadi:

- kredit kafillik sxemalarini (CGS) kengaytirish,
- foiz stavkalarini bozor tamoyillari asosida moslashtirish,
- garov talablarini real sektor imkoniyatlariga mos ravishda yumshatish,
- kreditlar bilan birga konsalting va biznes-reja bo'yicha yordamni kuchaytirish,
- xalqaro moliyalashtirish liniyalaridan foydalanishni kengaytirish,
- alternativ moliyalashtirish vositalari (lizing, faktoring, kraudfunding)ni rivojlantirish.

Mazkur choralar tijorat banklarining rolini kuchaytiradi, kichik biznesning investitsion faolligini oshiradi va iqtisodiyotning umumiy modernizatsiya sur'atlarini jadallashtiradi. Natijada, yangi ish o'rinlari yaratiladi, innovatsion loyihalar ko'payadi hamda O'zbekistonning iqtisodiy raqobatbardoshligi sezilarli darajada ortadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Small Businesses and Entrepreneurship in Uzbekistan's Economic Landscape: A Macroeconomic Perspective (2019–2024)
2. Demirgüç-Kunt, A., Pedraza, A. va Ruiz, C. (2023). Rivojlanayotgan bozorlar banklarining foydaliligi va moliyaviy barqarorligi. Jahon banki siyosiy tadqiqot ishlari, ishchi hujjat № 10245. Vashington, D.C.: Jahon banki.
3. Stiglitz, J.E. va Weiss, A. (1981). «Nomukammal axborotga ega bo'lgan bozorlarda kreditni ratsionallash», The American Economic Review, 71(3), 393–410-betlar.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (2020). 2020–2025-yillarda O'zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida. <https://lex.uz/docs/4849996>
5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2024). 2020–2024-yillarga oid yillik statistik byulleten. <https://www.cbu.uz>.
6. Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC) (2023). KOB moliyaviy bo'shlig'i to'g'risidagi hisobot: O'zbekiston profili. <https://www.ifc.org>.
7. G'aniyev, I. va Raxmatov, F. (2022). «Tijorat banklarining kreditlash metodologiyasi va O'zbekistonda KOB subyektlarining kreditga kirish imkoniyati», Moliyaviy va bank ishi sharhi, 4(2), 66–81-betlar.
8. Mikrokreditbank (2023). Yillik hisobot – 2023. Toshkent: Mikrokreditbank.
9. Xalq Banki (2023). Kichik biznesni qo'llab-quvvatlash dasturlari. Toshkent: Xalq Banki.
10. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YETTB) (2024). Markaziy Osiyoda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash: O'zbekiston misolida. <https://www.ebrd.com>.
11. Abdullaeva, Sh. (2021). Bank ishi. Toshkent: Iqtisod-Moliya nashriyoti.
12. Karimov, A. va Abdurahmonov, B. (2023). «O'zbekistonda tijorat banklarining aktivlar tuzilmasi va daromadligi: empirik dalillar», Qo'llanma moliya jurnali, 5(1), 34–45-betlar.
13. Osiyo taraqqiyot banki (2023). O'zbekiston mamlakat hamkorlik strategiyasi 2022–2026. Manba: OTB.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100